EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Saparova Gulnaz Kalbayevna
TIPI “Pedagogika” fakulteti professor v.b., ped.f.n.
Baxtiyorova Iroda
TIPI “Pedagogika” fakulteti
22/1 pedagogika yo‘nalish talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767725

ANNOTATSIYA

Saparova G. K. “Ekologik ta’lim va tarbiyaning ahamiyati” mavzusidagi maqolada ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni borqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o’ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo’shish zarurligining foydali tomonlari maqolada keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

ekologik muammolar, biologik xilma-xillik, iqlim o‘zgarishi, tabiatga munosabat, ekologik xavfsizlik

АННОТАЦИЯ

Сапарова Г. К. В статье на тему “Значение экологического образования и воспитания” актуальность экологического образования заключается в необходимости сохранения природы, экосистем, окружающей среды нашей страны от деградации и деградации, повышения экологической культуры населения, содействия всем слоям населения, особенно молодежи, в решении этих очень серьезных, жизненно важных вопросов - говорится в статье.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

экологические проблемы, биоразнообразие, изменение климата, отношение к природе, экологическая безопасность

ABSTRACT

Saparova G. K. In the article on the topic "The importance of environmental education and upbringing", the relevance of environmental education lies in the need to preserve the nature, ecosystems, and environment of our country from degradation and degradation, to improve the environmental culture of the population, to assist all segments of the population,

KEY WORDS

ecological problems, biodiversity, climate change, attitude towards nature, environmental safety

especially young people, in solving these very serious, vital issues, the article says.

Hozirgi kunda ekologik muammolardan biri biologik xilma-xillikning kamayib ketishi, iqlim o‘zgarish sabablari, atrof-muhitda turli xil ifloslanishlar kuzatilmoqda. Bularning hammasi tabiatga degan aholining dunyoqarashiga bog‘likdir. Sababi insonlarning tabiatga va umuman ekologiyaga munosabati, umuman aytganda, bu g‘oyani yo avlodlar ongiga yoshligidan singdirib borish, ta’lim dasturlariga ekologik ta’lim-tarbiyani kiritish, ya’ni ekologik ta’lim va madaniyatni rivojlantirish asosiy omillar biridir.

Ekologik ta’lim-tarbiya tizimli va uzluksiz jarayon bo‘lib, uning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. yoshlarning xulq-atvorni, shu jumladan atrof-muhitga, tabiatdan oqilona foydalanishga va umuman tabiatga degan munosabatni yaxshilashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qaroriga O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida Oliy ta’lim tizimining ekologik ta’limni takomillashtirish va rivojlantirish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan, barcha turdagi Oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’limning majburiyligi qayd etilgan. Ekologik ta’limning asosiy maqsadi aholining biosferaning barcha qatlamlarida atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga ongli munosabatni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Har bir yosh avlodga ekologik bilim va ko‘nikmalarni egallash, mas’uliyatni his etish, tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni sog‘lomlashtirish burchi ekanligini, ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhitdan oqilona foydalanishda ta’limning roli juda muhim. Ekologik bilimlarni targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Ekologik ta’limning asosiy maqsadi atrof-muhitning murakkabligi, aholining dunyo mamlakatlari iqtisodiy, siyosiy va ekologik jihatdan o‘zaro bog‘liqligidan xabardor bo‘lishiga yordam berishi kerak. Bu global ekologik muammolarni, xususan, havoning ifloslanishi, daryo va dengizlarning qurishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning zaruriy shartidir.

Ekologik ta’limda muayyan muammolarning ekologik, ijtimoiy, madaniy va boshqa jihatlarini o‘z ichiga olgan yaxlit yondashuvni qo‘llashimiz zarur.

Shuning uchun ham bu fanlararo uyg‘unlikni talab qilishi, ekologik ta’lim talabalarni ekologik muammolarni hal qilishda ishtirok etishga o‘rgatishi lozimdir. Olimlardan T. Raximova ekologik ta’limning maqsadlari, vazifalari va tamoyillari, J. Tursunov., O. Mavlonov., E. Turdiqulov., N. Bozorova. B Ziyomuxamedovlar

“Ekologiya va ma'naviyat”., Ismoilov A., Ahadov R. kabi olimlarimiz ekologik ta'lim-tarbiya va O‘zbekiston Respublikasi umumiy ta’lim maktablarida ekologiya bo‘yicha yoshlarning tabiatga munosabatini yaxshilash omillari va pedagogik kadrlar tayyorlashda ekologik ta’lim masalalari xususida ilmiy izlanish olib borishgan.

Mazkur konsepsiyaga ko‘ra ta’lim tizimida zudlik bilan zarur chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo etuvchi bir qator muammolar belgilandi.

Xususan, aholining barcha qatlamlarining bevosita ishtiroki, ekotizimni saqlash va atrof muhit barqarorligini qo‘llab-quvvatlash muammolariga yoshlarning kuch va e’tiborini jalb etish talab qilinadi. Biroq bugungi ta’lim tizimi, shuningdek, ekologiya bo‘yicha o‘quv dasturlari zamonaviy talablarga javob bermaydi. Malaka oshirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, ular asosida ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlarini ishlab chiqish zarur.

Ta’lim muassasalarida ekologiya muammolarini tushuntirishning bugungi holati qoniqarsiz darajada bo‘lib, alohida e’tibor talab etadi.

Umuman olganda, aholining tabiatdan foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish mas’uliyati va ekologik faoliyatga qiziqishini shakllantirish ham faol marketing strategiyasini va agressiv reklamani talab qiladi. Ijtimoiy roliklarni namoyish qiluvchi shahar bilbordlari va reklama vositalaridan foydalanish, mahsulotlar uchun ekologik sumkalarni ishlatish madaniyatini joriy etish, ekologik toza tovarlar va xizmatlar uchun trend va moda yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar ta’siriga juda moyil. Internet resurslaridan ommaviy axborot vositasi sifatida foydalanish zarur, ular orqali ekologik muammolar yoritiladi va internetdan foydalanuvchilarning ongiga yetkaziladi Ekologik bilimdon avlodni tarbiyalash, o‘z navbatida, ekologik madaniyatning tendensiyalari va modasini yaratadi, ishlab chiqaruvchilarni ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga undaydi.

Insoniyat atrof muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir texnologik taraqqiyot, aholi soni va ishlab chiqarish ko‘payishi bilan muntazam ravishda kuchayib boradi. Tabiiy resurslardan o‘ylamasdan foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklash choralarining yetishmasligi, atrof muhitning kuchli ifloslanishi halokatli iqlim o‘zgarishiga olib keladi. Oqibatda atrof muhit o‘zgarib, hayvonlar va o‘simliklarning ko‘p turlarining yashash sharoiti buzilayapti, kasalliklar ko‘paymoqda, umuman olganda, odamlarning turmushi va salomatligi yomonlashayotir. Shu munosabat bilan ekologik xavfsizlikni ta’minlash insoniyat uchun nihoyatda muhim vazifa ekanligini anglab yetish zarur.

Ushbu muammoni hal qilish uchun insonlarning tabiatga munosabatini o‘zgartirish, ekologik ongi va mas’uliyatini yoshligidan shakllantirish kerak. Ona

yurtning, sayyoramizning ertasini o‘ylamaslik, ekologik muammolarni yuzaki tushunish ekologik bilimlarning pastligi yoki ularning butkul yo‘qligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan tabiat va insonni birgalikda rivojlantirishga asoslangan yangicha tafakkur va mafkurani shakllantirishni chuqur ekologik ta’lim va tarbiyasiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o’ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo’shishi zarurligi bilan belgilanadi. Biroq, ekologik ta’limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta’limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to’liq ro’yobga chiqarishga to’sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko’rsatmoqda (O’zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Kontseptsiyasi 2019).

Yoshlarga ekologik ta’lim va tarbiya berishda, birinchi navbatda xalqimizning tarixan tarkib topgan ekologik – madaniy merosini o’rganish zarur, hamda uning asosida jamiyat hayotidagi hozirgi o’zgarishlarni hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanish qoidasining qat’iy tizimini yaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27-maydagi 434-sonli qarori. “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish Kontseptsiyasi” T.: 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risi” dagi qonuni. T.:”Sharq”, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: “Sharq”, 1997.
4. Ziyomuxamedov B. “Ekologiya va ma'naviyat”. T.: 1997.
5. Ismoilov A., Ahadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. T.: 1997.